

✓

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI



R. To'rayev
2024 yil

yxatga olindi:

No BD-60610100.106

2024 y "30 08"

FIZIKA 2

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	600 000 -Axborot - kommunikatsiya texnologiyalari
Ta'lim sohasi:	610 000 -Axborot - kommunikatsiya texnologiyalari
Ta'lim yo'naliishi:	60610100 - Axborot tizimlari va texnologiyalari

Termiz-2024

Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	ECTS - Kreditlar
FLZ1110	2024-2025	2	4
Fan/modul turi	Ta'lismi		Haftadagi dars soatlari
Majburiy	O'zbek		2
1	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lismi (soat) Jami yuklama (soat)
	Fizika 2	30	90 120
2	I.Fanning mazmuni Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarda klassik va zamonaviy fizikaning fundamental qonunlari haqida asosiy tushunchalarni shakllantirish va ularni o'zlashtirish, kasbiy faoliyatida fizika hodisalarini va qonuniyatlarini qo'llash ko'nkmalarini hosil qilish, kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ilmiy tafakkurni rivojlantirish va fundamental asosni yaratish. SHu bilan birga olingan bilimlarni amaliyotda nostonart masalalarga tadbiq etish ko'nikma va malakalarini hosil qilish. Fanni vazifasi - talabalarda ilmiy-amaliy dunyoqarashni, ya'ni fizikaviy hodisalarning tabiatini to'g'ri tasavvur qilish, tabiiy fanlar sohasida qo'yilgan har bir aniq vazifalar mazmunini umumiyligi fizika qonunlari bilan bog'lash, asosiy fizikaviy o'chov asbob-uskunalaridan foydalana bilish, fizika fanining rivojida o'zbek allomalarining qo'shgan hissalaridan g'ururlanishni shakllantirishdir. Fizikaviy bilimlar asoslari, fizikaviy qonuniyatlar haqida tasavvurga ega bo'lish vazifalarini bajaradi.		
	II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:		
	1-mavzu. Tebranma harakatlar: Garmonik tebranmaharakat kinematikasi va dinamikasi. Garmonik tebranma harakat energiyasi. Matematik, fizik, prujinali mayatniklar va tebranish konturi. Tebranishlarni qo'shish. So'nuchchi mexanik va elektromagnit tebranishlar. Tebranishlarning so'nish koeffitsienti. So'nishning logarifmik dekrementi va tizimning asligi. Majburiy mexanik tebranishlar. Majburiy elektromagnit tebranishlar. Rezonans hodisasi. Tok va kuchlanishning rezonansi va ularning radiotexnikada qo'llanilishi.		
	2-mavzu. To'lqin hodisalar: Yassi to'lqinning siljish va differensial tenglamasi. To'lqinning amplitudasi, fazasi, davri, chastotasi, to'lqin uzunligi va tarqalish tezligi. To'lqinlar superpozitsiyasi. Kogerent to'lqinlar va kogerentlik sharti. To'lqinlar interferensiyasi. Turg'un to'lqinlar. Elektromagnit to'lqin differensial tenglamasi. Elektromagnit to'lqin energiyasi. Umov-Poyting vektori. Energiya zichligi. Elektromagnit to'lqinlar		

shkalasi

3-mavzu. Yorug'lik nurlari: Yorug'lik nurining tabiatini. Yorug'lik to'lqinlarining kogerentligi va monoxromatikligi. Yorug'lik to'lqinlar interferensiyasi. Yorug'lik difraksiyasi. Frenel va Frungofer difraksiyasi. Frenel zonalari. Difraksion panjara. Rentgen nurlar difraksiyasi. Yorug'lik dispersiyasi va uning klassik nazariyasi. Yorug'likning yutilishi va sochilishi. Yorug'likning qutblanishi. Yorug'likning ikki muhit hegarasidan qaytishiva sinishidagi qutblanishi. Issiqlik nurlanishi. Absolyut qora jismning nurlanish qonunlari

4-mavzu. Kvant optikasi. Fotoeffekt. Tashqi fotoeffektning qonunlari va kvant nazariyasi. Yorug'lik bosimi. Kompton effekti Shredinger englamasi. Erkin zarrachaning harakati. Zarrachaning cheksiz chuqur potensial chuqurlikdagi holati. Zarrachaning potensial to'siqdan o'tishi - tunnel effekti. Vodorod atomi. Kvant sonlar. Energiya va impulsning kvantlanishi. Pauli prinsipi. Atomlarda elektronlarning energetik sathlar bo'yicha taqsimoti.

5-mavzu. Atomlarning chiziqli spektrleri: Modda zarrachalarining korpuskulyar-to'lqin dualistik tabiatini. De-Broly to'lqinining fizik ma'nosi. Geyzenberg noaniqlik munosabati. To'lqin funksiyasi va uning statistik ma'nosi. Shredinger tenglamasi. Potensial chuqurlikdagi zarrachalar holati. Tunnel effekti. Vodorod atomi nurlanishining chiziqli spektrleri. Ridberg doimisi. Energetik sathlar. Bor postulatlari. Vodorodsimon atomlar. Kvant sonlari va ularning ma'nolari. Pauli prinsipi. Atomlarda elektronlarning energetik sathlar bo'yicha taqsimoti. Elementlarning davriy tizimi.

6-mavzu. Qattiq jismlar fizikasi: Bog'lanish kuchlari. Van-der Vaals, molekulyar, ionli, atomli va metall bog'lanishlar. Kristall panjara. Erkin atomning energetik sathlar. Kristallarda elektronlarning umumlashuvi. Energetik sohalar hosil bo'lishi. Valentlik va o'tkazuvchanlik zonasasi. Zonalar nazariyasi bo'yicha o'tkazgichlar, yarim o'tkazgichlar va dielektriklar. Xususiy va aralashmali o'tkazgichlarning elektr o'tkazuvchanlik mexanizmi. Ulardagi donor va akseptor sathlar. Fermi sathi va uning holati. Xususiy yarim o'tkazgichlar va aralashmali yarim o'tkazgichlarning elektr o'tkazuvchanligining haroratga bog'liqligi.

7-mavzu. Kontakt hodisalar: Metallar elektr o'kazuvchanligi. Metallardagi Fermi-gazi, o'ta o'tkazuvchanlik. Atomlarning magnit xususiyatlari. Magnetiklarda magnit maydonlar. Chiqish ishi. Metall-metall, metall-yarim o'tkazgich, yarim o'tkazgich - yarim o'tkazgich chegarasidagi kontakt hodisalar. Elektron - kovakli o'tish.

8-mavzu. Atom va yadro fizikasi: Atom yadrosining tarkibi. Yadroning zaryadi, o'lchami va massasi. Nuklonlarning o'zaro ta'siri,

<p>Yadroning massa nuqsoni va bog'lanish energiyasi. Yadro kuchlari. Yadroning bo'linishi. Radioaktivlik Nurlanish turlari. Elementar zarrachalar</p> <p>III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar</p> <p><i>Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsija etiladi.</i></p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Garmonik tebranishlar. Tebranishlarni qo'shish 2. So'nuvchi mexanik va elektromagnit tebranishlar. Majburiy mexanik va elektromagnit tebranishlar 3. Mexanik va elektromagnit to'lqinlar 4. To'lqin optikasi. Yorug'likning kvant xususiyatlari 5. Kvant mexanikasi elementlari 6. Qattiq jismlar fizikasi. Kontakt hodisalari 7. Atom yadrosi fizikasi <p>IV. Mustaqil ta'lif va mustaqil ishlar</p> <p>Mustaqil ishlash uchun talabalarga umumiy fizikaga oid ma'lumotlar mayjud bo'lgan turli adabiyotlar tavsija etiladi. Bakalavr talabalarga mustaqil ishni "Umumi fizika" fani xususiyatlarini hisobga oлган holda quyidagi shakllardan foydalanib tayyorlashi tavsija etiladi:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Golografiya to'g'risida tushuncha: Interferensiya asoslangan optik asboblar va ularning kimyoda qo'llanilishi 2. Rentgen nurlari va ularning amaliy tadbiqi. 3. Yorug'likning bosimi. Lebedev tajribalari. 4. Kompton effekti. Optik pirometriya. 5. Absolyut qora jism va uning nurlanish qonunlari. Stefan-Bolsman qonuni. 6. Yorug'likning sochilishi. Spektroskopiya. Spektr turlari. Fotokimyo asoslari. 7. Yorug'likning issiqlik va ximyoviy ta'siri. Fotolyuminessensiya, fluoressensiya va fosforessensiya. O'simliklar flyuoressensiysi qonunlarining fizik talqini. 8. Yorug'likning kombinatsion sochilishi. Spontan va majburiy nurlanish. 9. Lazerlar va ularning ishslash prinsiplari. 10. Atom fizikasi. Atomning yadroviy modeli. 11. Vodorod atomi uchun Bor nazariyasi. Frank va Gers tajribasi. 12. Radioaktivlik. radioaktivlik. Radioaktiv siljish qonuni. 13. Atom yadrosining bog'lanish energiyasi. Yadro reaksiyalari. 14. Termoyadro reaksiyalari. 15. Radioaktiv nurlanish va undan himoyalanish, radioaktiv chiqindilarni saqlash. 16. Atmosferaning tarkibi va bosimi. Qurg'oqchilik, namlik va uning

<p>biokimyoviy jarayonlarga ta'siri.</p> <p>17. Fotometriya qonunlarini o'rganish.</p> <p>18. Yadrolarning bo'linishi, zanjir reaksiyalari. Termoyadro reaksiyalari.</p> <p>19. Dopler effekti</p> <p>20. Katta adron kollayderi</p> <p>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsija etiladi.</p>	
<p>3 V. Fan o'qitilishning natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> • fizik qonun va formulalarni standart va nostandard masalalarni yechish va tahlil qilish, natijalarni xar xil o'lchov sistemalarida hisoblashda matematik hisoblash usullari hamda fizikada qo'llaniladigan fizik qonunlar, prinsiplar, idealashtirilgan modellar va sxemalarning qo'llanilish chegarasi to'grisida <i>tasavvurga ega bo'lishi</i>; • Oddiy mexanik laboratoriya ishlarini sozlashni, o'lchashni, bajarishni va natijalarni hisoblashni, eksperiment xatoliklarini hisoblash va tajriba sifatini xulosalashni bilish, kasbiy xususiyatlariga oid asosiy fizikaviy o'lchov asbob-uskunalaridan to'g'ri va aniq foydalanish <i>malakalariga ega bo'lishi kerak</i>. 	
<p>4 VI.Ta'lif texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaolkeys-stadilar; • seminarlar (mantikiy fiklash, tezkorsavol-javoblar); • guruxlarda ishslash; • takdimotlarni qilish; • individual loyixdar; <p>jamoa bulib ishslash va ximoya qilish uchun loyixalar.</p>	
<p>VII.Kreditarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p>	

6.	<p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Savelev I.V.Umumi fizika kursi.T.1, T.2, T.Z. -M.: Astrel. 2011. 2. Sivuxin D.V. Umumi fizika kursi. Moskva. fiz. mat.lit. 2005. 3. Qosimov A.S. Umumi fizika darslik. IFRON-PRINT nashriyoti Termiz 2023. 4. Qosimov A.S., Sh.Jo'rayev, B.Qo'yliyev. Umumi fizikadan laboratoriya ishlari Toshkent. 2019. - 309 b. 5. O'.N. Sultonova, D.A. Begmatova, Y.SH.Dusov, J.X.Xaliyarov, B.B.Ismailov, M.Yo'lchiyev. Umumi fizikadan masalalar to'plami. Ifron Print nashriyoti. Termiz-2022 <p style="text-align: center;">Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. I.G.Tursunov, D.A.Begmatov. "Fizika" O'quv uslubiy qo'llanma. "Excellent Polygraphy". Toshkent 2020. 2. O.Qodirov "Fizika kursi" 1-qism (Mexanika, molekulyar fizika) Fan va texnologiya nashriyoti. Toshkent 2005. 3. S.Polvonov, X.Dalliyev, E.Bozorov, G.Polvonova. "Umumi fizikadan masalalar to'plami" Toshkent 2020. 4. M.Ismailov, P.Habibullayev, M.Xaliulin. "Fizika kursi" "O'zbekiston" nashriyoti. Toshkent 2000. 5. A.S. Qosimov "Umumi fizika" darslik. TerDU NMM nashriyoti Termiz 2022. 6. Douglas C. Giancoli. Physic sprinciples with applications. Pearson. 2014 7. David Halliday, Robert Resnick, Jearl Walker. Fundamentals of physics. John Wiley & Sons, Inc. 2014 <p style="text-align: center;">Axborot manbaalari</p> <ol style="list-style-type: none"> 1.https://phet.colorado.edu/en/simulations/filter?subjects=physics&sort=alpha&view=grid 2. https://teach-in.ru/#category-physics 3. https://efizika.ru/ 4. https://www.vascak.cz/physicsanimations.php?l=ru
7.	O'quv dasturi Termiz davlat universiteti o'quv-uslubiy Kengashning 202 1 yil <u>20</u> <u>08</u> / -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan
8.	Fan/modul uchun mas'ullar: Chorshanbiyeva N.A. TerDU Umumi fizika kafedrasi o'qituvchisi Rahmonov I.A. TerDU Umumi fizika kafedrasi o'qituvchisi
9.	Taqrizchilar: Raimov G'. TerDU Nazariy fizika kafedrasi kata o'qituvchisi PhD Boymirov Sh. Denov TPI dotsenti.